

KUNGABOQAR EKINI HAQIDAGI MA'LUMOTLAR VA UNING SELEKSIYADAGI AHAMIYATI

Sh.D.Xudoyberdiyeva

doktorant

X.A.Xabibullayev

Doktorant Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti

Annotasiya: *Kungaboqar o'simligining vegetatsiya davrlari turlicha bo'lib, buni ularning o'suv davrida ham ko'rish mumkin. Ularning poyalari o'sish jadalligida ham, vegetatsiya davri qisqa va poyasi uzun bo'lgan Liniya₁ Liniya₂ va Olimp F1, Yangi zamon, Madina navlari to'rtta qaytariqda joylashtirilgan duragaylarining osish va rivojlanishing fenologik kuzatishlar asosida olib borib o'rganilgan va ushbu maqolada jadvallar asosida taqqoslangan.*

Tayanch so'zlar: *shonalash, dukkaklash, fenologiya, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalar, o'suv davri davomiyligi issiqlikka, unib chiqish dinamikasi, vegetatsiya*

Аннотации: *Периоды вегетации растений подсолнечника различны, и это видно по периоду их роста. Рост и развитие гибридов Линия₁, Линия₂ и Олимп F1, Янги заман, Мадина обладающих коротким вегетационным тепла, динамика прорастания, вегетация периодом и длинным стеблем, изучались на основе фенологических наблюдений и сравнивались на основании таблиц в данной статье.*

Ключивий слова: *обработка почвы, подкормка, фенология, современные агротехнологии, экономящие воду и другие ресурсы, продолжительность вегетационного периода в зависимости от*

Abstract: *The vegetation periods of sunflower plants are different, and this can be seen in their growth period. The growth and development of Liniya₁, Liniya₂ and Olimp F1 Yangi zamon, Madina hybrids, which have a short growing season and a long stem, were studied based on phenological observations and compared based on tables in this article.*

Basic words: *tillage, podding, phenology, modern agrotechnologies that save water and other resources, the length of the growing season depends on heat, the dynamics of germination, vegetation*

KIRISH

Mamalakatimiz qishloq xo'jaligida o'tkazilayotgan islohatlarni izchil amalga oshirmoq uchun, sohaga zamonaviy texnologik tizim joriy etilmoqda. Dehqonchiligimizda ekilayotgan yangi ekinlar parvarishida texnologik meyorlarga amal qilish yangi texnologiyalarni kiritish bugun davr talabiga aylandi.

Aholining eng zaruriy extiyoji bu o'simlik moyi va g'alla hisoblanadi, yurtimizda ishlab chiqariladigan o'simlik moyining asosiy qismi paxta chigiti hissasiga to'g'ri

keladi, ammo chigit tarkibidagi toksik gossipol moddasi mavjudligi, buning uchun chigiti tarkibida gossipol miqdori yuqori bo'lgan g'o'za navlari yaratish zarur hisoblanadi va bu borada ham tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, so'ngi yillarda yurtimizda moyli ekinlar-kungaboqar, soya, maxsar kabi ekinlarning ekish hajmlarini ko'paytirish va qayta ishlashni rag'batlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Kungaboqarning dunyo bo'yicha maydoni 20 mln gektar bo'lib, o'rtacha hosildorligi 13-14 sentner. Biroq iqlim sharoitining o'zgarishi bilan turli hududlarda hosildorlik 8s/ga dan 35/ga gacha o'zgarishi kuzatiladi. Chunki kungaboqar ko'p o'stiriladigan Rossiya, Ukraina, Belorussiya, Moldava kabi davlatlarda yer sun'iy sug'orilmasdan tabiiy yog'ingarchilikdan foydalaniladi. Biroq sug'oriladigan yerlarda kungaboqarning intensiv nav va geterozisli duragaylaridan, 40-45 sentnergacha hosil yetishtirish mumkin.

Kungaboqar pistasini xalqimiz azaldan xush ko'radi, shuning uchun u avvallari har qadamda sotilardi. Endilikda uni zamonaviy do'konlardan ham sotib olish mumkin hamda qadoqlangan pistalar paydo bo'ldi. Kungaboqar tabiat tomonidan o'ziga xos ravishda yaratilgan. U inson organizmi uchun juda foydali bo'lib, uning tarkibidagi muhim bo'lgan oziq moddalar organizmda uzoq vaqt davomida saqlanish xususiyatiga egadir.

Bu mahsulot yarim to'yingan moy kislotalari, moy va xolesterin almashinuvini normallashtirish xususiyatiga ega.

100 g pista o'z tarkibida 311 mg magniyni saqlaydi. Bu javdar noniga nisbatan olti barobar ko'p demakdir. Magniy esa o'z navbatida yurak-qon tomirlari faoliyatini normallashtiradi.

50-60 g pista 20-30 g kungaboqar moyi bilan teng bo'lib, inson organizmini muhim bo'lgan yarim to'yingan kislotalar va YE vitamini bilan ta'minlaydi.

Bu vitaminlar esa bizning hayot faoliyatimiz uchun juda muhim sanaladi. Ayniqsa, pista tarkibidagi E vitamini erkak va ayollarning reproduktiv a'zolariga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, yosh bolalarning bo'ylari baland bo'lishiga ijobiy ta'sir qiladi. Organizmning zaiflashib qolishining oldini oladi. Jismoniy mehnat va sport bilan shug'ullanuvchi insonlar uchun juda foydali [3].

Kungaboqar – murakkabguldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'simlik, asosiy moyli ekinlardan biri, vatani-Shimoliy Amerika. Ildizi o'q ildiz, yaxshi rivojlangan, poyasi tik o'sadi, dag'al, yuqori qismi shoxlanadi, bo'yi 4 m ga boradi. Bargi oddiy, yirik, ketma-ket joylashgan, dag'al tuklar bilan qoplangan. To'pguli savatcha (diam. 35-40 sm). Chetdan changlanadi. Mevasi — lista, 4 qirrali, rangi oq, kulrang, 1000 ta urug'i vazni 100-150 g [1].

Kungaboqar urug'i 4–6°Cda 10–15 kunda unib chiqadi. Maysasi – 6°C sovuqqa bardoshli (qisqa qorasovuqlarga chidaydi). Issiqlikka talabchan, yorug'sevar, qisqa kunli, qurg'oqchilikka chidamli, namsevar o'simlik. Soya joyda yaxshi rivojlanmaydi. O'suv davri 80-140 kun.

Kungaboqar erta bahorda tuproq harorati 8-12°Cga yetganda va takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy va arpadan keyin ekiladi. Ekishdan oldin yer tekislanadi. Yer haydashdan oldin go'ng (20 t/ga), azotli, fosforli va kaliyli o'g'itlar solinadi. Ekishda makkajo'xori ekiladigan seyalkalardan foydalaniladi.

O'suv davrida qator orasi 2-3 marta kultivatsiya qilinadi, 5-6 marta sug'oriladi. Gullash davrida ekinzorda asalari uyalari qo'yilsa kungaboqar gullari yaxshi changlanadi. Gullash davrida ko'p suv talab qiladi. Sug'orish meyorlari 600-800 m³/ga. Kungaboqarning yetilganligini savatining sariq-jigarrangga kirganligiga qarab aniqlash mumkin. Hosil don kombaynlarida maxsus moslama bilan o'rib olinadi.

Kungaboqar urug'idan moy beruvchi bir yillik o'simlik. Poyasi - yog'ochlashgan, ichi g'ovak parenxima bilan to'la, bo'yi 0.6-2.6 m, silos navlarida 3-4 m, tik o'sadi, shoxlanmaydi. Usti qattiq tuklar bilan qoplangan. Barglari-yirik, bandli, uzunligi 20-40 sm ovalsimon, yuraksimon, uchi o'tkirlashgan, tuk bilan qalin qoplangan. Barglarning cheti tishli. Pastki 3-5 juft barglari poyada qarama-qarshi joylashgan, qolganlari navbatlashgan. Bitta o'simlikda barglar soni 14 tadan 50 tagacha yetadi. Ertapishar navlari kamroq, kechpisharlari ko'prok barg hosil qiladi. To'pguli-savatcha qovariq yoki botik, tekis disksimon, moyli navlarda diametri 15-25 sm, chaqiladigan navlarda 45 sm. bir necha bargchadan iborat o'rama bilan o'ralgan. Gul o'rnining o'rnida pushtsiz, tilsimon savatcha ichida naychasimon meva hosil qiluvchi gullar joylashgan. Bitta savatchadan 600-1200 tagacha gul bo'ladi. Mevasi- pistacha, siqilgan tuxumsimon shaklda, to'rtta qirrasiga bor. U urug'- yupqa urug' po'sti bilan qoplangan mag'iz va mag'izga yopishmay turadigan terisimon pishiq meva po'stidan iborat. Po'chog'i oq, qulrang, qora yo'l-yo'l yoki yo'lsiz bo'ladi. 1000 pista vazni 40-175 g. Po'chog'i pista vaznining 22-46 % tashkil qiladi. Urug'i (mag'iz)- murtak, yupqa urug' po'stidan, murtak esa ildizcha, kurtakcha va ikkita urug' palladan iborat [2]. O'rganilayotgan nav va linyalarning vegetatsiya davriga qarab gullash muddatlarini hisobga olib konkurs usulida joylashtirildi. Vegetatsiya davrida barcha navlarni fenologik kuzatish va qayd qilib borildi. Barcha namunalarning zararkunandalar va suv tanqisligiga bardoshlilikini baholandi. O'suv davrida va hosildorlik jihatidan o'zini yaxshi ko'rsatgan namunalarni tanlab olinib laboratoriyada baholandi. Asosan dala tajribalarimiz Andijon viloyati hududida o'tkazilgan bo'lib, Olimp F₁, Liniya₁, Yangi zamon, Madina, Liniya₂ duragaylarida o'rganilgan bo'lib dala tajribalarimiz fenalogiyasi jadvallar asosida ko'rsatilgan.

Dala tajribalarida fenologik kuzatuvlar. Unib chiqish: o'simlik unib chiqishi ko'rsatkichi urug' suvi berilgan kundan so'ng 30% ko'chatlar unib chiqqach hisoblanadi, bu ish uch marta o'tkaziladi, bu jadvalda har bir qaytariqda 10m² maydondagi, ya'ni 16.6 m masofaga ekilgan 66 dona ko'chatlarning o'rtacha unib chiqishi (1jadval).

1 -jadval

Olimp F₁ duragayining unib chiqish dinamikasi

Sana/ qaytariq	1-qaytariq	2-qaytariq	3-qaytariq	4-qaytariq	O'rtacha
04.05.2023	34 dona (51%)	32 dona (48 %)	36 dona (54)	35 dona (52.5 %)	34.2 (51.4 %)
07.05.2023	49 dona (73.5%)	50 dona (75 %)	48 dona (72 %)	51 dona (76.5%)	49.5 dona (74.3 %)
10.05.2023	62 dona (93 %)	61 dona (91.6 %)	60 dona (90.1 %)	61 dona (91.6%)	61 dona (91.6 %)

2- jadval

Liniya 1 namunasining unib chiqish dinamikasi

Sana/ qaytariq	1-qaytariq	2-qaytariq	3-qaytariq	4-qaytariq	O'rtacha
04.05.2023	32 dona (48 %)	32 dona (48 %)	36 dona (54%)	34 dona (51 %)	33.5 (50.4%)
07.05.2023	48 dona (72 %)	50 dona (75 %)	48 dona (72 %)	52 dona (76.%)	49.5 dona (74.3 %)
10.05.2023	61 dona (91.6 %)	62 dona (93 %)	62 dona (93 %)	61 dona (91.6%)	61.5 dona (92.3 %)

Quyidagi jadvalda barcha variantlarda ko'chatlarning o'rtacha unib chiqishini ko'rish mumkin (2-jadval).

3- jadval

Tajribadagi nav va tizmalarning o'rtacha unib chiqish ko'rsatkichlari

TR	Nav va liniyalar	QAYTARIQLAR				O'rtacha, %
		1	2	3	4	
1	Olimp F1	62 dona (93 %)	61 dona (91.6 %)	60 dona (90.1 %)	61 dona (91.6%)	61 dona (91.6 %)
2	Liniya 1	61 dona (91.6 %)	62 dona (93 %)	62 dona (93 %)	61 dona (91.6%)	61.5 dona (92.3 %)
3	Liniya 2	60 dona (90.1 %)	62 dona (93 %)	61 dona (91.6 %)	59dona (88.5 %)	60.5 dona (90.8 %)
4	Yangi zamon	62 dona 93 %	63 dona 94.5 %	62 dona (93 %)	62 dona (93 %)	62.2 dona (93.5 %)
5	Madina (st)	63 dona (94.5 %)	61 dona (91.6 %)	62 dona (93 %)	60 dona (90.1 %)	61.5 dona (92.3 %)

Jadvaldagi ma'lumotlar unuvchanlik ko'rsatkichi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich mahalliy Yangizamon navida (93.5 %) ko'rsatmoqda, eng past ko'rsatkich esa Liniya 2 (90.8 %) da qayd etildi.

Tajribamizda chin barg xosil qilish o'rganilayotgan nav va tizmalar orasida eng tez chin barglarini hosil qilishi Olimp F1da kuzatilib, vegetatsiyaning 11 kunni tashkil etdi (90% chin barg).

O'simliklarning vegetatsiya davrlari turlicha bo'lib, buni ularning o'suv davrida ham ko'rish mumkin. Masalan, ularning poyalari o'sish jadalligida ham, vegetatsiya

davri qisqa va poyasi uzun bo'lgan Yangi zamon navi tez o'sib ketganligini ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

Hulosa. Ushbu kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'rganilayotgan nav va tizmalar orasida eng tezpishari bu Yangi zamon navi, eng kechpishari esa xorijdan keltirilgan Olimp F₁ duragayi ekanligi ko'rindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Atabayeva X., Umarov Z «O'simlikshunoslik» «O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi» Toshkent – 2004. B. 152.

2. Lukov M. K. Takroriy ekilgan kungaboqar har xil navlarining urug'lik sifatlariga sun'iy changlatishning ta'siri."O'zbekistonda moyli va tolali ekinlarni yetishtirish hamda ularning mahsuldorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosidagi maqolalar to'plami. Tashkent-2011-y. 24 -b.

3. Lukov M.K., Hayitov A.B. Kungaboqarning yangi navlari va geterozisli duragaylarining yaratilishi. " Moyli ekinlarni yetishtirish va qayta ishlash:hozirgi holati va rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi Res